

BADIIY MATNLARDA TAQIQNING IFODALANISHI

Maqsudova Feruzaxon Jo‘ravoy qizi
Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada taqiq nutqiy janri, uning badiiy matnlarda lingvistik va paralingvistik vositalar orqali ifodalanishi, o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan.

Annotation. This article provides information about the speech genre of prohibition, its expression in artistic texts through linguistic and paralinguistic means, and its specific features.

Maqsadli munosabatlar bilan birlashtirilgan so‘zlar, matnlar, bir jumla bilan aytganda, nutqiy harakatlar to‘plamini nutq janri sifatida tushunamiz. Bu jarayon insonlarning ijtimoiy hayotda o‘zaro munosabatlarning doimiy holatlarini og‘zaki, yozma, shuningdek, ramziy ravishda ifodalash jarayoni ekanligi ham ma’lum. Bugungi kunda ushbu atama til sistemasidagi o‘ziga xos, barqaror nutqiy birliklarni tadqiq etuvchi alohida mustaqil ilmiy tilshunoslik sohasi sifatida tilni ijtimoiy munosabatlar oralig‘ida tadqiq qiluvchi tadqiqotchilar uchun o‘rganish obyekti sifatida ahamiyatli hisoblanadi. Nutqiy janrlar nazariyasining rivojlanishida rus tilshunos olimi M.M.Baxtinning tadqiqotlarini alohida ta’kidlash o‘rinli. U faqat adabiyotshunoslikda qo‘llanilgan janr tushunchasini tilshunoslikka ham tatbiq qildi hamda nutqiy janr tushunchasini olib kirdi. Shu bilan bir qatorda, o‘zining ilmiy qarashlari asosida ushbu yo‘nalishdagi fikrlarni boyitdi. Uning ta’kidlashicha, nutq janrlari jamiyat tarixidan til tarixiga “yetakchi kamarlar” bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lum bir lingvistik xarakterdagi matnda qo‘llanilgan har qanday nutqiy janr kontekst ta’siri ostida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Jumladan, kontekst rasmiy, badiiy tabiatli bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, yuqoridagi mazmunli matnlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlar, alohidaliklar kasb etadi. Masalan, buni “taqiq” nutqiy janri asosidagi ko‘rinishlariga e’tibor beraylik. Ta’kidlaganimizdek, har xil turdagi matnlarda (rasmiy, badiiy...) “taqiqlash” nutqiy janrini ifodalashda turli vositalardan foydalaniladi. Shunga muvofiq ravishda uning semantikasida ham turli nozikliklar, ahamiyatli jihatlar yuzaga chiqadi. Jumladan, quyidagi matnlarda ana shu jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a’zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar. Qonunchilik palatasi yoki Senatning roziligisiz jinoiy javobgarlikka tortilishi, qamoqqa olinishi yoki sud tartibida beriladigan ma’muriy jazo choralariga tortilishi **mumkin emas.**”

(O‘zbekiston Res. Kon, 88-modda)

Yuzim og‘riganidan emas, kulgim qistaganidan ko‘chaga otildim.

- **To‘xta**, yer yutkur! – Onam ketimdan chopadi. – **To‘xta**, juvonmarg!
(O‘. Hoshimov)

Har qanday nutqiy janrni ifodalashda bo‘lganidek, taqiq nutqiy janri ham turli lingvistik va paralingvistik vositalar asosida yuzaga chiqadi. Lingvistik vositalar sifatida taqiqni anglatuvchi fe‘llar (taqiqlanadi, mumkin emas, man qilmoq,); har qanday fe‘lning buyruq shakli (bunda buyruq orqali taqiq yuzaga chiqadi: qilmang, etmang...); yo‘q, mutlaqo so‘zlari; inkorni ifodalovchi yordamchilar (na...na, sira, hech, aslo) kabilarni ta’kidlashimiz mumkin.

Taqiq nutqiy janrining paralingvistik vositalar asosida ifodalanishi uning yanada tasirli, ishonarli tarzda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. V.Yartseva tasnifiga ko‘ra paralingvistik vositalar ham bir necha guruhlariga ajraladi.. U o‘z lug‘atida paralingvistik vositalarning 3 xil ko‘rinishi mavjudligini aytadi:

1. Fonatsion: temp, ovoz balandligi, tovushlarning talaffuzi, suhbatning tezligi, turli xil to‘xtalishlar:
2. Kinesika: imo-ishora, mimika, gavda qismini turli xil pozalarda tutish holatlari:
3. Grafik: harflar o‘rniga turli shartli belgilardan foydalanish yoki unga qo‘shimcha qilish, husnixat va shrift o‘lchamidagi o‘zgarishlar.¹

Nutq jarayonida taqiqni fonatsion tarzda ifoda etilishi o‘ziga xos fonetik hodisa sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bunda biror nutq tovushini cho‘zib talaffuz qilish, ovoz tempining o‘zgarishi (balandlik yoki juda pastlik); jim qolish kabi fonatsion birliklardan foydalaniladi.

So‘zlovchi muloqot jarayonida suhbatdoshiga o‘z fikrini yanada aniqroq, vaziyat taqozosiga ko‘ra ishonarli ravishda yetkazish uchun turli imo-ishoralardan, yuz ifodalaridan hamda tana qismlarining turli harakatdagi ko‘rinishlaridan – paralingvistik vositalardan foydalanadi. Tilshunos olim M. Saidxonovning quyidagi fikrlari ham kinema kommunikativ jarayonning ajrdalmas qismi ekanligini ko‘rsatadi: “Insonlarning ishoralar orqali fikr ifodalashi, yuzlarida, emotsional-mimik o‘zgarishlarning ko‘rinishi, garchi fiziologik, biologik jarayon bo‘lsa-da, u muloqotning, kommunikantlarning o‘zaro axborot almashinuvining natijasidir. Shunga ko‘ra imo-ishoralar antropologlarning o‘rganish obyekti bo‘lmasdan, ma’lum jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy holat bilan aloqador bo‘lgani sababli, bevosita tilshunoslar tomonidan o‘rganilishi kerak. Axborot uzatish lisoniy yoki nolisoniy yo‘l bilan amalga oshar ekan, nolisoniy yo‘l keng ma’nodan noverbal vositalar, ishoralar bo‘lib, axborotni to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Tabiatning boshqa in’omlari kabi inson tanasi harakatlari va mimikasi muayyan kontekst va holatda ma’lum ma’noni ifodalab

¹ У.ярцева В. Большой энциклопедический словарь. 2-е издание. -М.: “Большая Российская энциклопеди”, 1998.- С.367.

keladi. Shunga ko‘ra insonning boshqa xulqlari kabi imo va ishoralar ham o‘z tizimiga ega bo‘ladi. Insonlar tomonidan aloqa-aralashuvda ishlatiladigan ishoralar ham fiziologik, ham ijtimoiy hodisa sanaladi”.² Kommunikant aloqa jarayonida ma’lum bir taqiqni ifodalamoqchi bo‘lsa, adresatga “tushunarli” bo‘lgan harakatlarni ifodalaydi. Masalan, boshini ikki yonga qimirlatmoq, qo‘lini ko‘ktak qafasigacha ko‘tarib, kaftini ko‘rsatmoq, ko‘rsatkich barmog‘ini labi va burni ustiga qo‘ymoq yoki shu barmoqni havoda ikki yonga harakatlantirmoq...kabi kinemalardan foydalanadi.

Til egalarining ma’lum so‘zlarni, hodisalarni taqiq etishida ana shu xalq ijtimoiy hayotining turli sohalaridagi kuzatishlari, qabul qilingan ma’lum bir qonun-qoidalari asos bo‘lib xizmat qiladi. Taqiqni ifoda etishda harflar, so‘zlar, kinemalar bilan bir qatorda turli shartli belgilardan ham foydalaniladi. Bunga turli tashkilot va muassasalarda ishlatiluvchi taqiqni bildiruvchi belgilarni(kres, aylana ustidagi chiziq), yo‘l chetidagi taqiqni anglatuvchi belgilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan nazariy ma’lumotlardan kelib chiqqan holda “taqiq” nutqiy janrining rasmiy va badiiy matnlarda qo‘llanilishiga, ularning bir qator o‘ziga xos jihatlarning ifidalanishiga to‘xtalib o‘tsak. Badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlari uning obrazlilik, emotsionalligi, muallifning matn mavzusidagi o‘rni, hissiyotlari va o‘ziga xos qarashlarining aks etishi, ishlatilgan uslubiy qarashlarning boyligi, chuqur tavsilotlari hamda shunga muvofiq ravishda o‘quvchilarning tasavvuriga, ichki kechinmalariga ta’siri kabi bir qator omillar Badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlari uning obrazlilik, emotsionalligi, muallifning matn mavzusidagi o‘rni, hissiyotlari va o‘ziga xos qarashlarining aks etishi, ishlatilgan uslubiy qarashlarning boyligi, chuqur tavsilotlari hamda shunga muvofiq ravishda o‘quvchilarning tasavvuriga, ichki kechinmalariga ta’siri kabi bir qator omillar orqali namoyon bo‘ladi. Rasmiy ko‘rinishdagi matnlar esa aniqlik, izchillik, ixchamlik, tayyor qoliplashgan birliklardan foydalanish, hissiyot va baholarning ishtirok etmasligi kabi jihatlari bilan ajralib turadi. orqali namoyon bo‘ladi. Rasmiy ko‘rinishdagi matnlar esa aniqlik, izchillik, ixchamlik, tayyor qoliplashgan birliklardan foydalanish, hissiyot va baholarning ishtirok etmasligi kabi jihatlari bilan ajralib turadi.

Demak, shunga muvofiq har bir janr o‘z ifodasini to‘laqonli topishi uchun o‘ziga xos vositalarni va ularni tashkil qilishning maxsus usullarini talab qiladi.

Yigitlar Toshqal’a tomon yo‘l olishdi.

- **To‘xtang!** – qichqirdi Sarsonboy ota. – Musulmon bolamisizlar, meniki emas dedim-ku! Egasi yo‘q bu qo‘ylarning. Urushda bedarak ketgan, yigirma yildan beri boqib yuribman...Insof bormi?

(O‘.Umarbekov)

² Saidxonov M. "O‘zbek tilida ishoralaning xususiyatlari", fil.fan.doktori(DSc) diss. Andijon, 2022.

Ushbu parchada taqiqni bildiruvchi “To‘xtang” fe’li orqali so‘zlovchi tinglovchilarga ma’lum harakatni amalga oshirish mumkin emasligi haqidagi hukmni ifodalangan.

- Humoyun mirzoga chopar yuboraylikmi? – deb so‘radi Tohir.Bobur ko‘zini ochib, xiyol o‘ziga kelgandek bo‘ldi. Chopar Kobul va Badaxshonga yetib borguncha kamida bir oy vaqt o‘tadi. Bu orada biron kori hol bo‘lsa na Humoyun, na Mohim begim yetib kelolmasliklari aniq. Bobur g‘amgin **bosh chayqab**:

- Foydasi **yo‘q**, - dedi.
- Uning ahvoli tobora tang bo‘layotganininko‘rgan Tohir:
- Hazratim, bardam bo‘ling! – deb iltijo qildi. – Biz siz bilan necha o‘limlardan qolganmiz! Dardga bo‘y bermang, yengasiz!
- Lekin...bunday falokat...birinchi uchrashi!..

(P.Qodirov)

Karim podachi ich-ichidan xuruj qilib kelayotgan quvonchini bazo‘r yutib, uy egasiga yuzlandi.

- Shunisini tanladik.
- **Yo‘q**. Bunisi o‘zimizda qoladi, - dedi Sodiq aka qat‘iy **bosh chayqab**.
- Bir qo‘y ...qo‘zisi bilan.

(N.Norqobilov)

— Qimmatlilik, jamoa xarob, qishloqda deyarli erkak qolmabdi. O‘shanda rahmatlik Mannop ota rais edi. Sen uni ko‘rganmiding?

Abdulla “**yo‘q**” deya **boshini qimirlatdi**.

Ajoyib odam edi. Yoshligida otdan yiqilib, oyog‘i singan va umrbod cho‘loq bo‘lib qolgan.

(O‘. Umarbekov)

Ushbu badiiy parchalarda yozuvchi personajlarning suhbat jarayonidagi holatini, suhbatdoshga bo‘lgan subyektiv munosabatini lingvistik vosita bilan bir qatorda paralingvistik vositani ham qo‘llash orqali yanada aniqroq, kuztuvchiga tushunarli tarzda ifoda etishga erishgan. Har ikki misolda ko‘rinib turganidek, “yo‘q” lingvistik vositasi orqali ifoda etilgan taqiq ma‘nosi “bosh chayqab” paralingvistik vositasini qo‘llash orqali yanada qat‘iy, ishonarli hamda tasirli ifodalanishini ko‘rishimiz mumkin.

Quyida keltirilayotgan parchada esa yozuvchi aynan yuqoridagi taqiq ifodalovchi vositalar orqali taqiqning subyektiv hamda ijtimoiy jihatdan ahamiyatli jihatlarni yanada ochiqroq ifoda etgan holda ko‘rsatib bergan.

- Aldoqchi ekansiz? — dedi kulib Abdulla.
- Nega? — Gulchehra qoshlarini chimirdi.
- Juda yaxshi bilar ekansiz-ku?!

— Unchalik emas, — dedi Gulchehra va xo‘rsindi... — Mingbuloqda tansa tushishmaydi.

Mingbuloq shahar emas. **Vaqt ham yo‘q, imkoniyat ham yo‘q.**

—Nega? — hayron bo‘ldi Abdulla. — Axir bugun...

—Bugun boshqa gap. Bugunni biz ko‘pdan beri kutgan edik.

Abdulla Gulchehraning nima demoqchi ekanligiga tushunmadi. U hozir bu haqda o‘ylashni, surishtirishni istamasdi ham. U Gulchehraning chehrasiga mahliyo edi... **“Yo‘q,** — o‘ylardi u, — bunaqa qizni shaharda uchratmaganman. **Yo‘q.** Ochiq, kibor emas. Innaykeyin, juda chiroyli. Ikki yil ichida u butunlay o‘zgarib ketibdi”.

—Boshingiz og‘riyaptimi? — so‘radi nihoyat Abdulla. Gulchehra jilmayishga harakat qildi.

—Yo‘q, Xayol surib ketdim. Kechiring.

—Hechqisi yo‘q. Men hafa qilib qo‘ydimmi, deb qo‘rqdim. Hafa qilmadimmi?

Gulchehra unga jilmayib boqdi-da, **boshini qimirlatib qo‘ydi.** Shu boqishi Abdullaning yana chehrasini ochib yubordi. “Ko‘zlari muncha yaxshi?” — Xayolidan o‘tkazdi u. — **Yo‘q,** bunaqa qiz shaharda **yo‘q**

- Agar... bo‘sh bo‘lsangiz, kechqurun jo‘xorini o‘zingiz olib chiqing, men shu yerda kutib turaman. Xo‘pmi?

Gulchehra indamadi.

—Iltimos qilaman.

—Qaydam?

Gulchehra qo‘lini cho‘zdi. Gulchehra uning issiq kaftiga kaftini bosdi.

Gulchehra «**yaxshi emas**» deganday **boshini qimirlatdi** va sekin qo‘lini tortib bo‘shatdi.

—Kelasiz-a?

Ammo Abdulla qizning javobini eshitmadi. Gulchehra “xayr!” dedi-da, o‘qdek otilib uyiga kirib ketdi.

(O‘.Umarbekov)

Gulchehra unga jilmayib boqdi-da, **boshini qimirlatib qo‘ydi.** Mazkur paralingvistik vosita taqiqni ifoda etish asnosida muloqot etikasiga mos ravishda o‘zbek qizlariga xos uyat, andisha, odob kabi bir qator insoniy jihatlar hamda milliy tarbiya, axloq qoidalarining farzand hayotidagi ahamiyatini ifodalagan.

Berilgan badiiy matndan olingan parchalarda taqiqning morfalagik shakl (to‘xtang, yo‘q) hamda paralingvistik birlik (bosh chayqab) vositasida ifodalanishini ko‘rishimiz mumkin.” O‘zbek adabiyoti namoyondalari asarlaridagi imo va ishoralarning verbal ifodasi bo‘lmish ishora fe‘llari va birikmalar o‘ziga xos mikrosistemani tashkil etib, kontekstual rang-barangligi, ma’noviy xilma-xilligi va shakliy tuzilishidagi qonuniyat bu kabi lingvistik birliklarni keng miqyosda tadqiq

etish darkor ekanidan darak beradi. Bu o‘rinda kinemalarning verballashuvi masalasi diqqat markazida bo‘lgan hodisa sifatida baholanadi. Zero, aloqa-aralashuv jarayonini to‘laligicha lisonga ko‘chirishda, kommunikatsiyani tashkil etishda ishtirok etuvchi barcha unsurlarni verballashtirish ahamiyatli sanaladi. Shu o‘rinda, aytish kerakki, ishoralarning verballashuvi mavjud ishora fe‘llari orqali yoki mualliflarning ijodiy verballashtirishlari orqali namoyon bo‘ladi”.³

Nutqimizdagi taqiqlovchi harakatlar tilning eng muhim kommunikativ vositalaridan biri bo‘lib, mazkur birliklar suhbatdoshning o‘z sherigiga nimadir qilishni taqiqlash istagi sifatida ifoda etiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, o‘zbek tilida taqiq, asosan, “qilmang”, “etmang” kabi buyruq shaklidagi fe‘llar orqali ifodalanadi.”So‘zlar bilan ishlash” asarining muallifi J.Ostin fikriga ko‘ra, gapni aytishda so‘zlovchi gapirish barobarida ma’lum bir ishlarni (harakatlarni) ham bajaradi.”Nutqiy harakatlar asoschisi” sanalgan olimning ushbu qarashlari bugun tilshunoslikda keng qo‘llanilmoqda.

Ko‘plab tilshunos olimlarning xulosalari shuni ko‘rsatadiki, so‘zlovchilar suhbat orqali amalga oshiradigan harakatlar, umuman, nutqiy harakatlar, asosan, uch guruhga bo‘linadi:

1. Tasdiqlar, bayonotlar, da’volar, gipotezalar, tavsiflar, takliflarni rad qiluvchilar guruhi.
2. Va’dalar, qasamyodlar, tahdidlar, ko‘rsatmalardan iborat guruh.
3. So‘rovlar, chaqiriqlar, buyruqlar, taklifnomalar, iltimoslarni ifodalovchilar guruhi.

Ushbu tasnifga asoslangan holda taqiqni bildiruvchi harakatlarni buyruqlar, so‘rovlar, chaqiriqlarni ifodalovchi harakatlar bilan bir qatorda deb ayta olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hoshimov O‘ , Tushda kechgan umrlar. Toshkent, 2001.
2. Омонтурдиев А. Омонтурдиев Ж. Сўзкўллаш санъати.- Термиз :Жайхун, 1994, 60 Б.
3. Saidxonov M.”O‘zbek tilida ishoralaning verballashuvi va matniy xususiyatlari”, fil.fan.doktori(DSc) diss. Andijon, 2022
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008.

³ Saidxonov M.”O‘zbek tilida ishoralaning verballashuvi va matniy xususiyatlari”, fil.fan.doktori(DSc) diss. Andijon, 2022